

MAQOLLARDA MILLIY PSIXOLOGIYANING NAMOYON BO‘LISHI

Qosimova Gulhayo Xurramovna

Mahmudova Nigora Keldiyorovna

Annotatsiya. Maqolada milliy psixologiyaning maqollarda namoyon bo‘lishi haqida mulohaza yuritiladi. Ijtimoiy psixologiya mutaxassislarining milliy psixologiya hususida fikrlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘ziga xos jihatlari e’tirof etilgan.

Tayanch so‘zlar: maqol, etnopsixologiya, urf-odat, stereotip, milliy qadriyat, ma’naviy meros.

Milliy psixologiya – etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya, katta guruhlar sotsiologiyasi chorrahasida vujudga kelgan, milliy va etnik o‘z-o‘zini anglash xususiyatlarini, milliy xarakter muammolarini, millatlararo aloqalar oqimi va qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sohasi. Milliy psixologiya ommaviy ong va ijtimoiy psixologiyaning bunday elementlarini milliy stereotiplar deb biladi; tipik milliy xarakter haqidagi tasavvurlar; etnik guruhlar va millatlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani tartibga soluvchi sifatida xizmat qiluvchi turli ogohlantirishlar; urf-odat, marosim, etnik jamoa, millat, milliy ozchilikning integratsiyalashuvi va mavjudligining davomiyligini saqlashga yordam beradigan madaniyat elementlari sifatida izohlanadi. Millatlararo va davlatlararo aloqalarni rivojlantirish sharoitida milliy o‘zlikni anglash, etnik hamjamiyat tuyg‘usi, integratsiya va irqiy va milliy xurofotlardan xoli dunyoqarashini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiya mutaxassislari milliy psixologiya xususida shunday yozishadi: “Milliy psixologiya nima va uni kanday kilib o‘rganish mumkin? Bu hozirda ko‘pgina tadqiqotchilarni qiziqtirayotgan masalasidir. Chunki davr etnopsixologiyadan shunday empirik ma’lumotlar kutmoqdaki, u faqatgina milliy ongga taalluqli bo‘lgan hozirgi va o‘tmishdagi holatni emas, balki millatning ertangi kunini, uning ongi qaysi tomonga o‘zgarishini, millatlararo sodir bo‘ladigan jarayonlarni

bashorat qilmog‘i lozim”[1]. Manbalarda milliy psixologiya alohida xalqlar, etnik guruhlar yoki xalqlarning o‘ziga xos (real yoki idrok etilgan) psixologik xususiyatlarini va bu xususiyatlarni ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik va antropologiyada qiyosiy o‘rganilishi aytiladi. Milliy psixologiya milliy hududda yashovchi turli etnik guruhlar yoki odamlarning til, oila, ta’lim, sharoit va madaniyat bilan mustahkamlangan insoniy munosabat, qadriyatlar, his-tuyg‘ular, motivatsiya va qobiliyatlarning o‘ziga xos “birlashmasi” bilan tavsiflanadi [2]. Xalq og‘zaki ijodida ham halqning urf-odati, o‘ziga xos psixologik xususiyatlari aks etadi, natijada har bir xalqning maqollarida uning milliy psixologiyasi o‘z aksini topadi. M.Farmonova o‘zbek xalqida qadriyatning shakllanishi va uning inson psixologiyasiga ta’siri haqida shunday yozadi: “Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan: “suvga tupurma, non ustiga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma” kabi nasihatlarini eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi” [3;36]. Believe nothing of what you hear, And only half of what you see [4] (Eshitganingni hech biriga ishonma, Ko‘rganingni yarmiga ishon). Bu maqol turli g‘iybatlarga e’tibor bermaslik, inson ko‘rgan narsalarining faqat yarmigagina ishonishi lozimligi ta’kidlanadi. Hayotda oldindan uyushtirilgan holatlar ko‘p bo‘ladi va shunday vaziyatlarda ushbu maqol qo‘llaniladi. Yuqorida misol tariqasida keltirilgan maqollarda ingliz milliy psixologiyasiga xos bo‘lgan ehtiyotkorlik, yetti o‘lchab bir kesish kabi xarakterlar aks etgan. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy, ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy, jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, va boshqalar [5;26]. Bu qadriyatlar millat psixologiyasining asosini tashkil etadi. X.Qodirova o‘zining “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘rni” nomli maqolasida: “O‘zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy

qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi” de ta’kidlaydi. X.Qodirova milliy qadriyatlar sirasida quyidagilarni sanaydi [6;13]:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustuvorligi.
2. Xalq ongida ustuvor bo‘lgan fikr – do‘st va yaxshi qo‘shni bo‘lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.
3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish.
4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e’tibor ko‘rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish.
5. Millatning o‘lmas ruhi, millat ma’naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg‘otish, uni sevish.
6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e’tibor, degan qoidaga amal qilish.
7. Ayol zotiga ehtirom ko‘rsatish, ya’ni, muhabbat, go‘zallik va nafosat timsoli bo‘lgan ayolni qadrlash.
8. Sabr-toqat va mehnatsevarlik.
9. Halollik, mehr-oqibat. Millat psixologiyasi uning qadriyatlari asosida shakllanadi hamda uning ijodi: adabiyot, san’at, folklorda aks etadi. “O‘zbek xalq maqollari o‘zida xalqning milliy madaniy qadriyatlarini, uning xususiyatlarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi... Hikmatlar va maqollar umrning ko‘rki bo‘lib, ularni qadimdan ota-bobolarimiz o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib yaratganlar va bizgacha qadrlanib, xalq og‘zaki ijodi orqali yetib kelgan. Milliy madaniyat va ma’naviyat sohasida ko‘plab ishlarni amalga oshirgan V.N.Teliyaning ta’kidlashicha [7;24], maqollar xalqning kundalik hayoti bilan bog‘liq madaniy qadriyatlarning asrlar davomida an’anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ulkan manbaidir [3;36]. Zero, asrlar davomida xalqimiz maqollarni milliy qadriyat sifatida qadrlab, bola tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashgan. Bunday milliy, madaniy qadriyatlarning yuzaga kelishi, albatta, maqol mansub xalqning ming yillik tajribasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularda olamni anglashning o‘ziga xos tarzi, xalq dunyoqarashi, psixologiyasi aks etadi. Xususan, “Andishaning oti – qo‘rqoq”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, “Bolali

uy – bozor, bolasiz uy – mozor”, “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi”, “Yoqasi qolsa ham – beqasam”, “Maslahatli to‘y tarqamas”, “Er-xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi” kabi maqollarda milliy psixologiya to‘laqonli aks etgan [3;36]. Qadimdan kishining aybini yuziga dangal aytmaslik, istihola qilish o‘zbekona odobning ajralmas qismi sanalgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zbeklarda “Andishaning oti – qo‘rqoq” kabi maqollar yaratilgan. Mazkur maqolning mazmuni “biror kishi kimnidir nafsoniyatiga tegadigan gap aytsa, o‘sha kishi mulohazali ekanligi bois unga munosib javob qaytarmaydi. Ammo mulohazasiz kishi yana o‘shanday gap-so‘zlarni qilaversa, unga kinoyali tarzda “Andishaning otini qo‘rqoq qo‘ymang” tarzida javob beriladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu maqolga quyidagicha izoh berilgan: 1. Ketini, oqibatini o‘ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza. 2. Umuman fikr, mulohaza. Qandaydir andisha tutdi tilini. (A.Muxtor). 3. Sharm-hayo, or-nomusga amal hissi. Biz Zulfiya opaning yonlarida bo‘lib, u kishidan nafaqat jurnal ishini, odob-andishani, halollikni ham o‘rgandik. (“Saodat”). O‘zbek millatiga xos ibo, hayo, xushmuomalalik, yuzga tik qaramaslik, o‘zaro munosabatlarda kattalar hurmatini joyiga qo‘yish kabi fazilatlar doimo ustun turgani va “betgachoparlik” nojo‘ya qiliq, o‘zbek odobiga zid bo‘lgan holat ekani uchun xalqda shunday maqollar yaratilgan. Hozirgi o‘zbek tilidagi “Yetti o‘lchab, bir kes” maqolida ham ana shu jihat ustunlik qiladi. Ta’kidlash joizki, har bir maqol tarkibida milliy psixologiyamizga xos bo‘lgan so‘zlar mavjud. Masalan, “Tor joyda osh yegandan – keng joyda musht yegan yaxshi” maqolida osh, “Urvog‘iga chidagan yupqa qilsin” maqolida yupqa, “Qazisan, qartasan, asli zotingga tortasan” maqolida qazi va qarta, “Yoqasi qolsa ham – beqasam” maqolida beqasam, “Er-xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi” maqolida doka ro‘mol, “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” maqolida esa do‘ppi so‘zi aynan o‘zbek millatiga xos milliy madaniy qadriyatga ega. Yuqorida qayd etilgan xalq maqollarida milliylikimiz, xalqimizning o‘ziga xos fazilatlari, odob-axloqi, dunyoqarashi, ijtimoiy hayot tarzi, umuman olganda, milliy psixologiya aks ettirilgan. M.Farmonovna o‘zbek xalqining qadriyatlari, psixologiyasi, o‘ziga xos xususiyatlari hamda milliy fazilatlari – ijtimoiy, jamoaviy

jihatlari va axloqiy ijobiy hamda axloqiy salbiy fazilatlardan kelib chiqib quyidagicha tasnifni taklif etadi:

1. Ijtimoiy jihatlari – maqsadlilik, bunyodkorlik, tabiatga muhabbat, g‘oyaviy kurashchanlik, vatanparvarlik, me‘yorga rioya qilish, ijtimoiy faollik, e‘tiqodlilik, faoliyatda hamisha birinchilikka intilish.

2. Jamoaviy jihatlari – oilaga sodiqlik, mehmondo‘stlik, ibrat olishga moyillik, boshqalarga qarab ish tutish, farzandsevarlik, bag‘rikenglik, hamjihatlilik, ahillik, do‘stga sodiqlik, jamoaga intilish, an‘ana va urf-odatlarini qadrlash, boshqalarga yaxshilik qilishdan zavqlanish.

3. Axloqiy ijobiy fazilatlar – halollik, ibolilik, hayolilik, tejamkorlik, saxovatlilik, qanoatlilik, sabrlilik, vijdonlilik, insoflilik, shukronalik, haromdan hazar qilish, istarasi issiqlik.

4. Axloqiy salbiy fazilatlar – va‘dabozlik, isrofgarchilik, xufyona egoizm, loqaydlilik, dabdababozlik, hasadgo‘ylik, boylik va mansabga mutelik, befarqlik [3;36]. Milliy psixologiyani ifodalovchi bu xarakter-xususiyatlar quyida tahlilga tortiladigan maqollarda o‘z ifodasini topgan. O.Musurmonova xalq og‘zaki ijodida milliy psixologiyaning namoyon bo‘lishini shunday izohlaydi: “Millatimizga xos bo‘lgan jamoaviy jihatlardan oilaga, do‘stga sodiqlik, mehmondo‘stlik, ahillik, an‘ana va urf-odatlarini qadrlash kabilarni qayd etib, an‘ana hamda qadriyatlarga to‘xtab o‘tishni lozim ko‘rdik. O‘zbek xalqining milliy an‘analari, urf-odatlarini, marosimlarini juda katta tarixiy ildizga ega. An‘analar, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma‘naviyati, qadriyatlarining ajralmas qismidir. Ular xalqning ma‘naviy ehtiyojlari zahirida shu xalqning orzu-o‘ylari, istaklarini, turmush tarzi, axloq normalarini o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirib, kelgusi avlodlarga ma‘naviy qadriyat sifatida yetkazishi lozim”. Inoq oilada – beshik bo‘shamas. Bu maqolda: “Er-xotinlar bir-biri bilan inoq bo‘lsalar, tinch, totuv turmush qursalar, qo‘sha qariydilar, ketma-ket farzand, nevara-chevara ko‘radilar, uvali-juvali bo‘ladilar” deyilmoqchi. O‘zbek xalqi uchun oila – muqaddas maskan. Shu sababli o‘zbek xalqi oilaga hurmat bilan qaraydi, uni asrashga

harakat qiladi; erxotinning totuv yashashi uchun kattalar qo‘dan kelgan har qanday tadbirga tayyor turadi. Ushbu psixologik xususiyat – oilaning muqaddasligi aynan o‘zbek xalqiga xos. Ishtoni yo‘q el kezar. Bu maqolni uyda hech balosi yo‘q, oilasiga, bola-chaqasiga qaramay, ularni o‘z holiga tashlab qo‘yib, faqat o‘z rohatini ko‘zlaydigan, o‘z maishatini o‘ylab, ko‘chama-ko‘cha, choyxonama-choyxona, shaharma-shahar tentirab yuruvchi kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llaydilar. Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek oilasi tartibli, oila ro‘zg‘orning but bo‘lishi bilan baholanadi. O‘zbek oilasiga qachon kirib borsangiz, ochiq yuz, to‘kin dasturxon bilan kutib oladi. Aks holda, shunday kishilar jamiyat a‘zolari tomonidan salbiy baholanadi. O‘zbek borki, sarishta xonadon, to‘kin dasturxonli oilani tartibli, fayzli xonadon deb biladi. Balki boshqa millatlar psixologiyasida bu stereotip yo‘qdir, ammo o‘zbek psixologiyasida “Vatan ostonadan boshlanadi”. Yigit degan er bo‘lur, mehnat ko‘rsa, sher bo‘lur. Var.: “Mardning mardiy maydonda sinalar, Yigitning yigiti – mehnatda”, “Yigit ish bichuvda bilinar, Tuya – suv kechuvda” (tuya boshqa hayvonlarga nisbatan suvga ojiz bo‘ladi. U suzishni bilmaydi. Oyog‘i suv tubidan ko‘tarildi yeguncha, oqib ketadi. Shuning uchun ham tuya sayoz suvlardangina kechib o‘ta oladi; ish bichmoq – ishning rejasini bilmoq). “Yigit moli yerda” (Agar u mehnat qilsagina, mashaqqatlarga chidasagina, yerdan boylik undira oladi” deyilmoqchi. O‘zbek yigitlari mehnatsevarligi bilan ajralib turadi. Shu sababli o‘zbek psixologiyasida o‘g‘il tarbiyalayotgan ota-ona o‘g‘lini mehnatsevar, hunarmand qilib tarbiyalashga intiladi. “Yigit kishiga kishiga yetmish hunar oz” maqolini hamma o‘zbek oilasi o‘ziga shior qilib olgani hech birimizga sir emas.

Yo‘qolgan pichoqning sopi – oltin. Var.: “Yo‘qolgan boltaning dastasi – oltin”, “Ketgan baliq – kemadek”, “O‘lgan sigir sutli bo‘ladi”, “Yo‘qolgan buzoqning arqoni qimmat”, “Yo‘qolgan molning egasi – vali”. Bu maqollar bilan “Avvalo birovdan omonat olingan narsani yo‘qotma, sindirma, buzma. Aks holda, taomilga ko‘ra, o‘rniga undan yaxshiroq narsa berishining to‘g‘ri keladi. Chunki egasi o‘zining yo‘qolgan narsasini “ana undoq edi, mana bundoq edi” edi maqtab, bahosini oshirib, o‘rniga to‘lagan uncha-muncha narsangni nazarpisand qilmaydi, deyilmoqchi”. Birovning

haqqidan hazar qilish, bironing moliga ko‘z olaytirmaslik o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan. Uning psixologiyasi olingan narsa – omonat. Uni sog‘-omon o‘z egasiga qaytarish kerak, degan tasavvur sobit. Yuqorida izohi keltirilgan va tahlil qilingan maqollardan shuni ko‘ramizki, xalq maqollarida millat ruhiyati – psixologiyasi aks etarkan.

Foydalanilgan adabiyotdar

1. Farmonova M. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi / Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2019. – 36 b.
2. <https://quoteinvestigator.com/2017/06/23/half-see/>
3. Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti. – T: Falsafa va huquq instituti, 2008. – B. 26.
4. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. – 2-son, 2006. – B. 13.
5. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspektы. – M.: Shkolы “Yazyki russkoy kulturey”, 1996. – S. 241